

## Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-may oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1- iyun holatiga ko'ra viloyatda 6002 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1008 tasi (16,8 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 1005 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 16,7 % i) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 769 tasi (12,8 %) kiyim ishlab chiqarishga, 501 tasi (8,3 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 277 tasi (4,6 %) mebel chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1- iyun holatiga ko'ra





## II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 18 913,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar- may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>18 913,3</b>	<b>105,4</b>
<i>shaxar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	4432,1	98,7
Qo'qon shahri	3160,1	106,5
Quvasoy shahri	703,0	107,2
Marg'ilon shahri	697,8	104,9
Oltiariq tumani	357,2	103,0
Qo'shtepa tumani	935,1	104,7
Bog'dod tumani	418,5	103,1
Buvayda tumani	382,8	109,2
Beshariq tumani	548,5	104,8
Quva tumani	209,6	87,5
Uchko'prik tumani	1565,7	104,7
Rishton tumani	177,6	108,1
So'x tumani	55,6	108,2
Toshloq tumani	781,2	102,6
O'zbekiston tumani	538,2	103,3
Farg'ona tumani	705,2	104,8
Dang'ara tumani	504,7	102,4
Furqat tumani	307,8	106,3
Yozyovon tumani	143,2	104,1

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


- [Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)
- [Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (13 462,8 ming so'm), Qo'qon shahrida (10 053,8 ming so'm), Quvasoy shahrida (6 800,6 ming so'm), Uchko'prik tumanida (6 331,1 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 553,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buvayda tumanida (106,8 %), Rishton tumanida (106,0 %), So'x tumanida (105,4 %), Quvasoy shahrida (105,1 %), Qo'qon shahrida (104,6 %), Furqat tumanida (104,2 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar- may oylarida**



**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025- yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 441,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (92,2 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 74,1 mlrd so'm (0,4 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 250,6 mlrd so'm (6,6 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 146,8 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2025- yilning yanvar-may oylarida**



### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 58,9 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 44,8 % ga kamaygan), 56,5 ming tonna ip kalava (18,7 % ga kamaygan), 452,2 ming litr aroq mahsulotlari (2,1 martaga ko'paygan) hamda 134,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (24,6 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may*	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may
Paxta tolasi, tonna	34 848,9	40 837,0	35 690,6
Paxta urug'lari, tonna	60016,2	57 904,3	39 192,7
Avtomobil benzini, ming t	1712,4	127,0	58,9
Dizel yoqilg'isi, ming t	139,3	154,8	103,1
Paxta linti, tonna	3017,6	3 755,5	3 146,3
Neft bitumi, ming t	35,9	18,3	16,6

Portlandsement, ming t	290,8	170,1	120,9
Sement klinkrlari, ming t	64,2	48,8	17,8

\*2023-2024- yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9 % (2024 yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,6 % (2024 yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024 yilning yanvar-may oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,0 % (15,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,1 % (26,0 %), quyi texnologiyali 55,1 % (58,1 %)ni tashkil etgan.



## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2025- yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 115,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 102,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may*	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	133,6	130,0	148,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	796,9	578,0	592,7

## **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 120,8 % ni, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 114,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 131,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may*	2024- yil yanvar- may*	2025- yil yanvar-may
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	40,6	83,2	94,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	6,8	15,6	20,4

\*2023-2024- yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 8 163,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 53,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-may oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 47,1 % ni tashkil etgan.



#### V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

##### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatlari o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiyamatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

Ijrochi:  
O.Komilov  
73 241-96-28 (4010)

**Manzil:**

